



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

MIKROMOLIYA XIZMATLARI BOZORI SHARHI

2024-yil yakuni bo'yicha

Mikromoliya xizmatlari bozori sharhi O'zbekiston Respublikasida mikromoliya xizmatlarining joriy holati, rivojlanish tendensiyasi, mikromoliya bozori xizmatlarining ijtimoiy ta'sirini tahlil etadi.

I. Mikromoliya xizmatlari bozorining joriy holati

Kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida jami **83 trln so'm** miqdorida mikromoliya xizmatlari ko'rsatilgan bo'lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **38 trln so'mga** yoki **86 foizga** oshgan.

Bunda, ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **80 foizi** (66 trln so'm) tijorat banklari, **18 foizi** (14 trln so'm) mikromoliya tashkilotlari va **2 foizi** (2 trln so'm) lombardlar hissasiga to'g'ri kelgan.


Mikromoliya xizmatlarining **86 foizga** oshishi, ushbu xizmatlarning tijorat banklarida **85 foizga**, mikromoliya tashkilotlarida **2 barobarga** va lombardlarda **10 foizga** oshishi hisobiga yuzaga kelgan.

2024-yilda ko'rsatilgan jami mikromoliya xizmatlarining **75 trln so'mi (90%)** 100 mln so'mgacha, **8 trln so'mi (10%)** 100 mln so'mdan 300 mln so'mgacha bo'lgan mikromoliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Natijada, ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning jami kredit tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlardagi ulushi 2024-yil yakunida 2023-yildagi **19 foizdan 27 foizgacha** oshdi.

1-chizma


Bozor ishtirokchilari kesimida mikromoliya bozori hajmi dinamikasi



Mikromoliya bozori ishtirokchilari kesimida banklar tomonidan 2024-yilda ko'rsatilgan jami mikromoliya xizmatlarining **43 trln so'mi (64 foizi) xususiy banklar** va **23 trln so'mi (36 foizi) davlat ulushi mavjud banklar** hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bunda, mikromoliya xizmatlarining o'sishi davlat banklarida **93 foiz**, xususiy banklarida **82 foizni** tashkil etgan.

2-chizma


Tijorat banklari kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari



Eng yuqori o'sish sur'ati davlat ulushi mavjud banklarda Biznesni rivojlantirish bankida **4 barobar** (shundan, mikrokreditlar 15 barobar), Xalq bankida **3 barobar** (shundan mikroqarzlar 4 barobar), Mikrokreditbankda **2 barobar** (shundan, mikrokreditlar 3,9 barobar) bo'lsa, xususiy banklardan TBC bankda **3 barobar** (shundan, mikroqarzlar 3 barobar), Invest finans bankda **3 barobar** (shundan, mikroqarzlar 7 barobar) va Anorbankda **3 barobar** (shundan, mikroqarzlar 2,6 barobar) o'sish kuzatilgan.

3-chizma

Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari




Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning **60 foizi** yoki **9 trln so'mi uchta** mikromoliya tashkilotlari, jumladan, **“Shaffof moliya”** (5 trln so'm yoki 35 foizi), **“TezCoin”** (2 trln so'm yoki 14 foizi) va **“Fortuna Biznes”** (2 trln so'm yoki 11 foizi) tomonidan ko'rsatilgan.


4-chizma

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari

2023-yil davomida



2024-yil davomida




Lombardlar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarining **19 foizi** yoki **337 mlrd so'mi** uchta lombardlar, jumladan, **“Oltin”** (128 mlrd so'm yoki 7 foiz), **“Shokir invest”** (106 mlrd so'm yoki 6 foiz) hamda **“Maksimum”** lombard (103 mlrd so'm yoki 6 foizi) hissasiga to'g'ri keladi.

5-chizma

Lombardlar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari, mlrd so'm

2023-yil davomida

2024-yil davomida



Mahsulotlar kesimida jami mikromoliya xizmatlarining **59 trln so'mi** yoki **71 foizi mikroqarzarlar**, **14 trln so'mi** yoki **17 foizi mikrokreditlar**, **10 trln so'mi** yoki **12 foizi boshqa mikromoliyaviy xizmatlar** (iste'mol kreditlari, jismoniy shaxslarning biznes maqsadlari uchun ajratilgan mikrokreditlar, overdraft va kredit karta) hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan mos ravishda **1,7 barobarga** (24 trln so'm), **2,5 barobarga** (8 trln so'm) va **2,6 barobarga** (6 trln so'm) oshgan.

Bunda, **mikroqarzarlar** tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **69 foizini** (46 trln so'm), mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **78 foizini** (11 trln so'm) va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **100 foizini** (2 trln so'm) tashkil etadi.

Mikroqarzarlar o'sishi davlat ulushi mavjud banklardan Xalq bankida **4 barobar** (3 trln so'm), O'zmilliybankida **2 barobar** (2 trln so'm), O'zsanoatqurilishbankda **2 barobarga** (3 trln so'm) oshgan bo'lsa, xususiy banklardan TBC bankda **3 barobar** (12 trln so'm), Anorbankda **3 barobarga** (3 trln so'm) o'sgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarda mikroqarzarlar **5 trln so'm** yoki **60 foizga** o'sgan.

Mikrokreditlar tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **16 foizini** (*10 trln so'm*), mikromoliya tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **22 foizini** (*3 trln so'm*) tashkil etgan.


Bunda, eng yuqori o'sish davlat ulushi mavjud banklar orasida Biznesni rivojlantirish bankida **15 barobar** (*2 trln so'm*), Agrobankda **6 barobar** (*1 trln so'm*), Aloqa bankda **4 barobarni** (*184 mlrd so'm*) tashkil etsa, xususiy banklar orasida Kapitalbankda **2,5 barobar** (*796 mlrd so'm*), Orient finans bankda **2 barobar** (*11 mlrd so'm*) va Anorbankda **2 barobarga** (*31 mlrd so'm*) o'sgan.

Mikromoliya tashkilotlarida mikrokreditlar 3 trln so'm yoki 6 barobarga o'sgan.

Boshqa mikromoliyaviy xizmatlar tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining 15 foizini (*10 trln so'm*) tashkil etadi. Bunda, **kredit kartalar** 7 foizni (*5 trln so'm*), jismoniy shaxslarning biznes maqsadlari uchun ajratilgan **mikrokreditlar** 6 foizni (*4 trln so'm*) **overdraft** 2 foizni (*1 trln so'm*) va **iste'mol kreditlari** 0,2 foizni (*158 mlrd so'm*) tashkil etadi.


6-chizma

Mahsulotlar kesimida ishtirokchilar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari ulushi



Boshqa mikromoliyaviy mahsulotlar hajmi davlat ulushi mavjud banklar orasida **Turon bankda** 13 barobar (*88 mlrd so'm*), **Mikrokreditbankda** 4 barobar (*389 mlrd so'm*) va **Asakabankda** 4 barobarga (*295 mlrd so'm*) o'sgan bo'lsa, xususiy banklar orasida **Invest finans bankda** 4 barobar (*912 mlrd so'm*), **Anorbankda** 2,3 barobar (*418 mlrd so'm*) o'sish kuzatilgan.

Mikromoliya bozori hajmining mahsulotlar kesimida o'zgarish dinamikasi



Mijozlar kesimida 2024-yilda ko'rsatilgan jami mikromoliya xizmatlarining **72 trln so'mi** yoki **87 foizi jismoniy shaxslar** hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **32 trln so'mga** yoki **82 foizga** oshgan.

Shundan, **o'zini-o'zi band qilgan shaxslarga jami 16 trln so'mlik** yoki jami mikromoliya xizmatlarining **20 foizi ko'rsatilgan bo'lib**, 2023-yilning mos davriga nisbatan **12 trln so'm** yoki **4 barobarga** oshgan.

O'zini-o'zi band qilgan shaxslarga 2024-yilda tijorat banklari tomonidan **12 trln so'mlik** va mikromoliya tashkilotlari tomonidan **4 trln so'mlik** mikromoliya xizmatlari ko'rsatilgan.


Yakka tartibdagi tadbirkorlarga jami 6 trln so'mlik yoki jami ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **7 foizi to'g'ri** kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **3 trln so'mga** yoki **3 barobarga** oshgan.

Yuridik shaxslarga ko'rsatilgan jami mikromoliya xizmatlar 5 trln so'mni (jamida 6 foiz) tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **2 trln so'mga** yoki **88 foizga** oshgan.

2023-2024-yillarda ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning tarkibida jismoniy shaxslar (*o'zini o'zi band qilganlar chegirilgan holda*) va o'zini o'zi band qilgan shaxslar o'rtasida **migratsiya** yuzaga kelgan bo'lib, **jismoniy shaxslar ulushi 78 foizdan 67 foizga pasaygan holda o'zini-o'zi band qilgan shaxslar ulushi 10 foizdan 20 foizga yetgan.**

8-chizma

Mijozlar kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari tarkibining choraklik dinamikasi



Sohalar kesimida sanoatning ulushi 64 foizni yoki 7 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 3,6 trln so'mga yoki 2 barobarga oshgan.

Sanoat tarkibida aylanma mablag'ni to'ldirish ulushi 45 foiz, asbob uskuna sotib olish ulushi 36 foizni, ishlab chiqarish ulushi 15 foizni va tikuvchilik ulushi 4 foizni tashkil etadi.


Savdo va umumiy xizmatlar ulushi 14 foizni yoki 1,5 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 792 mlrd so'm yoki 2 barobarga oshgan.

Qishloq xo'jaligi ulushi 10 foiz yoki 1 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 788 mlrd so'm yoki 5 barobarga oshgan.

Qurilish ulushi 5 foiz yoki 575 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 396 mlrd so'm yoki 3 barobarga oshgan.

Boshqa sohalar ulushi 7 foiz yoki 810 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 232 mlrd so'm yoki 40 foizga oshgan.

Sohalar kesimida ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar ulushlari taqsimoti




Muddatlar kesimida qisqa muddatlari kreditlarning ulushi 2023-2024-yillarda tijorat banklarida 13 foizdan **9 foizga** kamaygan bo'lsa, mikromoliya tashkilotlari va lombardlarda 51 foizdan **68 foizga** yetdi.

Qisqa muddatli mikromoliyaviy xizmatlar ulushi **21 foiz** yoki **17 trln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **8 trln so'm** yoki **86 foizga** oshgan. Bunda, **qisqa muddatli kreditlar tarkibida tijorat banklari** ulushi **36 foizni** (2023-yilga nisbatan 16 foizga kamaygan) tashkil etsa, mikromoliya va lombardlar ulushi **64 foizni** (2023-yilga nisbatan 16 foizga oshgan) tashkil etadi.

Uzoq muddatli kreditlar ulushi **79 foizni** yoki **66 trln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **30 trln so'm** yoki **86 foizga** oshgan. **Uzoq muddatli kreditlarda** tijorat banklarining ulushi **92 foiz** yoki **60 trln so'mni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **29 trln so'm** yoki **94 foizga** oshgan.


Ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining muddatlari ulushining choraklik dinamikasi



Valyutalar kesimida 2024-yil davomida ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning **99 foizi** (81 trln so'm) milliy valyutada ko'rsatilgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan **86 foizga** (38 trln so'm) oshgan.

Bunda, banklar tomonidan ko'rsatilgan milliy valyutadagi mikromoliya xizmatlari hajmi **30 trln so'm** (86 foizga), mikromoliya va lombardlarda esa **8 trln so'm** (87 foizga) ortdi.

Valyutalar kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari ulushi



Xorijiy valyutadagi mikromoliyaviy xizmatlar **1,3 trln** so'm ekvivalentini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **478 mlrd** so'm ekvivalentiga yoki **60 foizga** oshgan.

*Xorijiy valyutadagi mikromoliya xizmatlari **21 ta** tijorat banklari, jumladan **7 ta** davlat ulushi mavjud tijorat banki va **14 ta** xususiy tijorat banklari tomonidan ko'rsatilgan.*

*Jumladan, Kapitalbank tomonidan **994 mlrd so'm**, Ipak yo'li banki tomonidan **140 mlrd so'm** miqdorida xorijiy valyutada mikromoliya xizmatlari ko'rsatilib, ularning jami xorijiy valyutada ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlaridagi ulushi mos ravishda **78 va 11 foizni** tashkil etdi.*

Hududlar kesimida mikromoliya xizmatlari hajmi barcha hududlarda o'sish tendensiyasiga ega. Jumladan, eng yuqori o'sish

— jami ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari bo'yicha **Toshkent shahri** (2 barobar yoki 25 trln so'm), **Xorazm** (2 barobar yoki 1,3 trln so'm) va **Surxondaryo viloyatlarida** (2 barobar yoki 1,2 trln so'm);

— mikroqarzlar bo'yicha **Toshkent shahri** (2 barobar yoki 19 trln so'm), **Xorazm viloyati** (43 foiz yoki 302 mlrd so'm) va **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (41 foiz yoki 396 mlrd so'm);

— mikrokreditlar bo'yicha **Sirdaryo viloyati** (4 barobar yoki 221 mlrd so'm), **Surxondaryo viloyati** (3 barobar yoki 547 mlrd so'm) va **Toshkent shahrida** (3 barobar yoki 3 trln so'm);


— boshqa mahsulotlar bo'yicha **Andijon** (5 barobar yoki 375 mlrd so'm), **Surxondaryo** (4 barobar yoki 319 mlrd so'm) va **Namangan viloyatlarida** (3 barobar yoki 233 mlrd so'm) kuzatilgan.

Yuridik shaxslarga hududlar kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining hajmi barcha hududlarda oshgan. Xususan, eng yuqori o'sish ko'rsatkichi Sirdaryo **4 barobar** (221 mlrd so'm), Surxondaryo **3 barobar** (545 mlrd so'm) va Jizzax viloyatlarida **3 barobar** (322 mlrd so'm) qayd etilgan.

Jismoniy shaxslarga hududlar kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining hajmi barcha hududlarda oshgan. Xususan, eng yuqori o'sish Toshkent shahrida **2 barobarga** (24 trln so'm), Xorazm viloyatida **81 foizga** (800 mlrd so'm) va Surxondaryo viloyatida **64 foizga** (672 mlrd so'm) ortgan.

*Hududlar kesimida ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **43 trln so'mi** yoki **60 foizi** Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi.*

Hududlar kesimida jismoniy va yuridik shaxslarga ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, foizda



II. Mikromoliya xizmatlarining ijtimoiy ta'siri


Mikromoliya xizmatlarning ijtimoiy ta'sirini baholashda respublikadagi **208 ta** tumanlar **“ilg'or”**, **“o'rta”** va **“og'ir”** toifadagi tumanlarga ajratildi.

Mikromoliya xizmatlarining tuman toifalarida taqsimotida 2024-yilda ko'rsatilgan jami **83 trln so'm** miqdoridagi mikromoliya xizmatlarining **71 trln so'mi** **“ilg'or”** toifadagi, **8 trln so'mi** **“o'rta”** toifadagi va **4 trln so'mi** **“og'ir”** toifadagi tumanlar hissasiga to'g'ri kelib, ularning jami mikromoliya xizmatlardagi ulushi mos ravishda **86 foiz**, **9 foiz** va **5 foizni** tashkil etadi.

Bunda, ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlar hajmining o'sishi 2023-yilning mos davriga nisbatan **“ilg'or”** toifadagi tumanlarda **33 trln so'm (85%)**, **“o'rta”** toifadagi tumanlarda **3 trln so'm (82%)** va **“og'ir”** toifadagi tumanlarda **2 trln so'mga (98%)** o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-sonli **“Aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan tumanlar ilg'or (60 ta), o'rta (77 ta) va og'ir (71 ta) toifalarga ajratilgan.**


Tuman toifalari kesimida ko'rsatilgan jami mikromoliyaviy xizmatlar hajmi



Ilg'or toifadagi tumanlarda ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining **45 trln so'mi** yoki **64 foizi** Toshkent shahri, **6 trln so'mi** yoki **9 foizi** Farg'ona viloyati, **3 trln so'mi** yoki **4 foizi** Toshkent viloyati hisobiga to'g'ri keladi.

14-chizma

Toshkent shahri va respublikaning boshqa ilg'or toifadagi tumanlarida ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi



Tuman toifalari bo'yicha ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlari hajmining eng yuqori o'sish ko'rsatkichi

— **ilg'or toifadagi tumanlarda** (*Toshkent shahri bundan mustasno*) **Xorazm** viloyati (84 foiz yoki 634 mlrd so'm), **Surxondaryo** viloyati (73 foiz yoki 641 mlrd so'm) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (61 foiz yoki 510 mlrd so'm);


— **o'rta toifadagi tumanlarda** **Surxondaryo** (3 barobar yoki 180 mlrd so'm), **Namangan** (2 barobar yoki 408 mlrd so'm) va **Jizzah** (2 barobar yoki 133 mlrd so'm) viloyatlarida;

— **og'ir toifadagi tumanlarda** **Namangan** (3 barobar yoki 62 mlrd so'm), **Buxoro** (2,5 barobar yoki 224 mlrd so'm) va **Sirdaryo** (2 barobar yoki 147 mlrd so'm) viloyatlarida kuzatilgan.

Og'ir toifadagi tumanlar kesimida Namangan viloyatidagi Mingbuloq va Norin tumanida 3 barobar, Sirdaryo viloyatidagi Mirzaobod tumanida 2,8 barobar va Oqoltin tumanida 2 barobar, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Amudaryo 2,1 barobar va Taxtakopir tumanida 1,8 barobar, Farg'ona viloyatidagi Furqat 3,4 barobar va Yozyovon tumanida 3,2 barobar o'sgan.

15-chizma


Hududlar kesimida tumanlar toifalari bo'yicha ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarining o'sish sur'ati




Hududlarda ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlar hajmini tuman toifalari bo'yicha taqsimoti tahlil qilinganda, 2024-yil davomida hududlarda ko'rsatilgan jami mikromoliya xizmatlar tarkibida **migratsiya holati** kuzatilib, **o'rta** va **og'ir** toifadagi tumanlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar respublikaning barcha hududlarida (*Qoraqalpog'iston Respublikasida va Farg'ona viloyatlari bundan mustasno*) ortib borishi, **ilg'or** toifadagi tumanlarning jami mikromoliya xizmatlaridagi ulushining kamayishiga olib kelgan.

Jami mikromoliyaviy xizmatlarning tuman toifalari bo'yicha taqsimoti

2023-yil davomida



2024-yil davomida



Xususan, 2024-yilda 2023-yilning mos davriga nisbatan **og'ir toifadagi** tumanlarda ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarining jami mikromoliya xizmatlardagi **ulushi** 13 ta hududda **0,3 – 7,5 foiz band** intervalida o'sgan bo'lsa, faqatgina Qoraqalpog'iston Respublikasida 2 foiz bandga kamayib, **15 foizga** yetgan.

O'rta toifadagi tumanlarda ko'rsatilgan mikromoliya xizmatlarning **ulushi** 13 ta hududda **0,2 – 10,0 foiz band** intervalida o'sish kuzatilgan bo'lsa, faqatgina Toshkent viloyatida 2 foiz bandga kamayib, **26 foizni** tashkil etgan.

Ilg'or toifadagi tumanlarda esa 13 ta hududda **1,4 – 12 foiz band** oralig'ida kamayish kuzatilgan bo'lib, Namangan viloyatida 74 foizdan **62 foizga** (*-12 foiz band*) pasaygan holda eng yuqori kamayish ko'rsatkichini qayd etgan. Bunda, faqatgina Toshkent viloyatida o'sish kuzatilib, ushbu ko'rsatkich 68 foizdan **69 foizga** (*+1 foiz band*) yetgan.

*Toshkent shahridagi barcha tumanlar **ilg'or tumanlar** toifasiga mansub hisoblanadi.*